VATAN HIMOYASI VA MILLIY XAVFSIZLIK: HUQUQIY YONDASHUV

Nurullayeva Nazirabonu Nasullayevna
Buxoro yuridik texnikumi
Davlat huquqiy faoliyati yunalishi 1 -bosqich talabasi

Annotatsiya: *Mazkur maqolada O‘zbekiston Respublikasida Vatan himoyasi va milliy xavfsizlikni ta’minlashning huquqiy asoslari tahlil qilinadi. Xususan, Konstitutsiyada belgilangan normalar hamda sohaga oid qonun hujjatlari orqali davlat xavfsizligini ta’minlash mexanizmlari yoritiladi. Shuningdek, harbiy xizmatning milliy xavfsizlikdagi o‘rni, fuqarolarning konstitutsiyaviy burchlari va yoshlar ongida vatanparvarlikni shakllantirish masalalariga huquqiy yondashuv beriladi.*

Kalit so‘zlar: *Vatan himoyasi, milliy xavfsizlik, Konstitutsiya, harbiy xizmat, fuqaro burchi, huquqiy asos.*

Kirish

Bugungi globallashuv sharoitida har bir davlat uchun Vatan himoyasi va milliy xavfsizlikni ta’minlash masalasi dolzarb ahamiyat kasb etadi. Davlat mustaqilligi, hududiy yaxlitligi va konstitutsiyaviy tuzumining barqarorligi bevosita milliy xavfsizlik bilan bog‘liqdir. Shu jihatdan, Vatan himoyasi masalasi nafaqat harbiy, balki huquqiy ahamiyatga ham ega.

O‘zbekiston Respublikasida Vatan himoyasi va milliy xavfsizlikni ta’minlash Konstitutsiya hamda boshqa normativ-huquqiy hujjatlar asosida amalga oshiriladi. Konstitutsiyada belgilangan normalar fuqarolarning davlat oldidagi burchlarini, shuningdek, milliy xavfsizlikni ta’minlash mexanizmlarini belgilab beradi. Mazkur maqolaning maqsadi Vatan himoyasi va milliy xavfsizlikning huquqiy asoslarini tahlil qilish hamda ularning jamiyat taraqqiyotidagi o‘rnini yoritishdan iborat.

Asosiy qism:O‘zbekiston Respublikasida milliy xavfsizlikni ta’minlash bir qator maxsus vakolatli davlat organlari faoliyati orqali amalga oshiriladi. Mazkur organlar davlat mustaqilligi, hududiy yaxlitligi hamda jamiyatda barqarorlikni ta’minlashda muhim o‘rin tutadi. Ular o‘z vakolatlari doirasida qonun ustuvorligini ta’minlash, jamoat tartibini saqlash va fuqarolarning xavfsizligini himoya qilish bilan shug‘ullanadi.

Xususan, O‘zbekiston Respublikasi Davlat xavfsizlik xizmati davlatning konstitutsiyaviy tuzumini, suvereniteti va hududiy yaxlitligini himoya qilish, terrorizm va ekstremizmga qarshi kurashish, shuningdek, razvedka va kontrrazvedka faoliyatini amalga oshiradi. Ushbu organ milliy xavfsizlikni ta’minlashning muhim subyekti hisoblanadi.

Ichki ishlar vazirligi jamoat tartibini saqlash, jinoyatchilikka qarshi kurashish, yo‘l harakati xavfsizligini ta’minlash hamda migratsiya va pasport tizimi ustidan nazoratni amalga oshiradi. Ichki ishlar organlarining faoliyati fuqarolarning kundalik xavfsizligini ta’minlashda muhim ahamiyat kasb etadi.

Shuningdek, Mudofaa vazirligi va Chegara qo‘shinlari davlatning mudofaa salohiyatini mustahkamlash, davlat chegaralarini muhofaza qilish orqali milliy xavfsizlikni ta’minlashda ishtirok etadi. Favqulodda vaziyatlar vazirligi esa tabiiy va texnogen ofatlarning oldini olish, aholini himoya qilish orqali xavfsizlikni ta’minlashga xizmat qiladi

1992 yil 14-yanvar kuni esa mustaqil davlatimiz tarixida yana bir muhim tadbirga qo‘l urildi. Respublika Oliy Kengashining “O‘zbekiston Respublikasi hududida joylashgan harbiy qismlar va harbiy o‘quv muassasalari to‘g‘risida”gi qarori bilan mamlakatimiz hududidagi barcha harbiy tuzilmalar mustaqil O‘zbekiston tasarrufiga o‘tkazildi. Davlatimiz rahbari tashabbusiga asosan qabul qilingan mazkur hujjat armiyamizni isloh qilishning uzoq muddatli dasturi ishlab chiqilishiga yo‘l ochdi. 1993-yilning 29-dekabrida 14-yanvar jonajon yurtimizda “Vatan himoyachilari kuni” deb e’lon qilindi.

Hozirgi kunda O‘zbekiston Respublikasining Mudofaa vazirligi tarkibida harbiy bo‘linmalar, Ichki ishlar vazirligi organlari, Chegara qo‘shinlari, Favqulodda vaziyatlar vazirligi va Davlat xavfsizlik xizmatining harbiylashtirilgan qismlari faoliyat yuritadi. Ushbu organlar davlatning hududiy yaxlitligi va mustaqilligini himoya qilish, jamoat tartibini ta’minlash, terrorizm va ekstremizmga qarshi kurashish, shuningdek tabiiy va texnogen ofatlardan himoya qilish kabi vazifalarni bajaradi.

2022-yil ma’lumotlariga ko‘ra, O‘zbekiston Qurolli Kuchlari jahondagi 106 mamlakat armiyalari reytingida 54-o‘rinni egallaydi. Global Firepower (GFP) ma’lumotlariga ko‘ra, O‘zbekiston armiyasida hozirgi vaqtda 420 ta tank, 1215 ta BTR (zirhli transport vositasi), 98 ta raketa tizimi, 70 ta qiruvchi samolyot va 65 ta vertolyot mavjud. Shuningdek, ularda 35 ta hujumkor vertolyot va boshqa ko‘plab harbiy texnika mavjud bo‘lib, qurolli kuchlar zamonaviy xavfsizlik talablariga javob beradi.

Ushbu ma’lumotlar O‘zbekiston Qurolli Kuchlarining milliy xavfsizlikni ta’minlashdagi roli va ularning zamonaviy qurollanish darajasini ko‘rsatadi. Harbiy salohiyat, mudofaa va xavfsizlik tizimining huquqiy asoslari Konstitutsiya hamda “Harbiy majburiyat va harbiy xizmat to‘g‘risida”gi qonunlarda belgilangan.

O‘zbekiston Qurolli Kuchlari 1991-yil 14-yanvarda tashkil etilgan bo‘lib, tarkibida Quruqlik qo‘shinlari va Havo kuchlari mavjud. Qurolli Kuchlarning yuqori qo‘mondoni O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti, Mudofaa vaziri esa Bahodir Qurbonovdir. Harbiy xizmatga chaqiruv yoshi 18 yoshdan boshlanadi va xizmat muddati odatda 12 oyni tashkil etadi.

Bugungi kunda harbiy xizmatdan ozod qilinganlar soni 7 887 292 kishi, xizmatga layoqatlilar soni esa 6 566 118 kishi. Chaqaruv yoshiga yetganlar soni 306 404 kishi, shuningdek, harbiy kasb bilan shug‘ullanganlar soni 68 000 kishini tashkil etadi.

Bu ma’lumotlar O‘zbekiston Qurolli Kuchlarining tuzilmasi, yoshlar va fuqaro burchini tashkil etishdagi huquqiy asoslari haqida tasavvur beradi. Qurolli Kuchlar milliy xavfsizlikni ta’minlashda, Vatan himoyasida va davlat suverenitetini saqlashda muhim rol o‘ynaydi.

Konstitutsiyamizning 64-moddasida O‘zbekiston Respublikasini himoya qilish O‘zbekiston Respublikasi har bir fuqarosining burchi ekanligi qat’iy ta’kidlangan. Shu sababli ham oilada farzand tarbiyasida vatanparvarlik, harbiy vatanparvarlik hissini

shakllantirish muhim ahamiyat kasb etadi. Yosh avlodni huquqiy jihatdan yetuk va barkamol qilib tarbiyalash, ona Vatanga bo‘lgan muhabbatni shakllantirish avvalo, oiladan boshlanishi hammamizga ayon.

O‘zbekiston Respublikasining qonuni

VATAN HIMOYACHILARI KUNINI BELGILASH TO‘G‘RISIDA

O‘zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlarining mamlakat mustaqilligini hamda hududiy yaxlitligini, xalqimizning tinch hayotini va mustaqillikni mustahkamlash yo‘lidagi bunyodkorlik mehnatini himoya qilishdagi, yosh avlodni vatanparvarlik ruhida tarbiyalashdagi ahamiyatini, shuningdek O‘zbekiston hududida joylashgan harbiy tuzilmalarning 1992-yil 14-yanvardan respublika yurisdiksiyasiga o‘tkazilganligini inobatga olib, O‘zbekiston Respublikasi Oliy Kengashi qaror qiladi:

14-yanvar — Vatan himoyachilari kuni etib belgilansin.

O‘zbekiston Respublikasining Prezidenti I. KARIMOV

Toshkent sh.,

1993-yil 29-dekabr, 1018-XII-son

(O‘zbekiston Respublikasi Oliy Kengashining Axborotnomasi, 1994-y., 1-son, 27-modda)

Xulosa

Xulosa qilib aytganda, Vatan himoyasi va milliy xavfsizlik har bir fuqaroning konstitutsiyaviy burchidir. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 64-moddasi fuqarolarning harbiy yoki muqobil xizmatni o‘tash majburiyatini belgilaydi. Milliy xavfsizlikni ta’minlashda Qurolli Kuchlar, Ichki ishlar vazirligi, Chegara qo‘shinlari, Favqulodda vaziyatlar vazirligi va Davlat xavfsizlik xizmati muhim vazifani bajaradi. Harbiy xizmat yoshlar ongida vatanparvarlik va mas’uliyatni shakllantiradi. Shu bois Vatan himoyasi va milliy xavfsizlikni ta’minlash — nafaqat huquqiy, balki ma’naviy burchdir va har bir fuqaroning faol ishtirokini talab qiladi.

Ona yurtimiz o‘zining jasur va mard yoshlari bilan har doim faxrlanadi. Yoshlar ota-ona va oilasini, yashayotgan yurtini muqaddas bilib, Vatan himoyasida shay turishni burch deb hisoblaydi. Ushbu bayram milliy armiyaga bo‘lgan cheksiz hurmatni va alp yoshlarimizga nisbatan iftixorni ifodalaydi. Shuningdek, u Vatan himoyachilariga tinchlik, sog‘liq va muvaffaqiyat tilash, ularning sharafiga ehtirom ko‘rsatish imkonini beradi.

Foydalanilgan manbalar:

1. https://lex.uz/docs/-112115
2. Oliymahad.uz.wikipedia.org
3.https://www.google.com/url?sa=t&source=web&rct=j&opi=89978449&url=https://raqobat.gov.uz/14-yanvar-vatan-himoyachilari-kuni-3/&ved=2ahUKEwiflYyI3_GRAxUjgv0HHRDVGekQFnoECA4QAQ&usg=AOvVaw23tLGy2TU6EFLX9Rclu1ih
4. https://lex.uz/.
5. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi 64-moddasidan.